

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


10 noyabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-10 noyabr Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

SQB va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,450% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,631% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,392% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- 2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT₁) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,353% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 9,371% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,409% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,254% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,352% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,171-8,878% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,91-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,13% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 3,92% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,009% (3 oylik) va 2,124% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **691,2** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **175,4** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **11 972** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **12 060** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **6,54%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




10.11.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Octobank**da qayd etilgan – **12 060** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 065–12 120** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Trastbank**da qayd etilgan – **12 030** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 020–11 960** so'm atrofida bo'lgan.

USD-RUB dinamikasi




➤ USD/RUB: dollar kursi barqarorligicha qolmoqda

O'tgan haftada USD/RUB kursi mo'tadil o'zgaruvchanlikni namoyish etdi, 81,0–81,6 rubl oraligida savdolashdi. Dollarning haftalik mustahkamlanishi (+0,4 rubl) asosan jahon bozorida neft narxining sekin o'sishi va AQSh Federal zaxira tizimining foiz stavkasi bo'yicha qarorlarini kutish bilan bog'liq.

Rublning barqarorligi valyuta bozorida nisbiy muvozanat saqlanib turganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kelgusidagi kurs harakati neft narxlarining dinamikasi hamda AQShdan kelayotgan makroiqtisodiy signallarga bog'liq bo'ladi.

RUB-YUAN dinamikasi




➤ RUB/CNY: rubl o'z pozitsiyalarini saqlab qolmoqda

O'tgan haftada RUB/CNY kursi rublning mo'tadil mustahkamlanishini ko'rsatdi — 1 yuanga nisbatan 11,0 dan 11,3 rublgacha oshdi. Volatillik past darajada bo'lib, kurs harakati silliq va barqaror kechdi. Bu holat Rossiya va Xitoy o'rtasidagi muvozanatli savdo oqimlari hamda valyuta bozorining barqaror kon'yunkturasini aks ettiradi.

Rublning yuanga nisbatan barqarorligi asosan barqaror eksport tushumlari va muvozanatli valyuta oqimlari bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bozor ishtirokchilari uchun joriy kurs oraliqlari spekulativ imkoniyatlarni cheklaydi, asosiy xavf esa tashqi omillarning keskin ta'siri bo'lishi mumkin.

EUR-USD dinamikasi




➤ Yevro dollarga nisbatan mustahkamlanmoqda

O'tgan haftada EUR/USD kursi mo'tadil o'zgaruvchanlikni ko'rsatdi. 3-noyabrda 1 yevro 1,1541 USD, 7-noyabrga kelib esa 1,1591 USD darajasiga yetdi. Haftaning minimal kursi 1,1497, maksimal kursi esa 1,1591 USD/EUR bo'ldi.


Yevroning dollarga nisbatan o'sishi bir nechta omillar bilan izohlanadi: AQSh Federal zaxira tizimining asosiy foiz stavkasi bo'yicha qarorlarini kutish, Yevropadan kelayotgan mo'tadil makroiqtisodiy ma'lumotlar va global moliya bozorlaridagi barqarorlik. Shu bilan birga, yevro haftani dollarga nisbatan mustahkamlanish bilan yakunladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltin narxlari keskin oshdi

Juma kuni oltin narxi o'rtacha o'sib, bir untsiya uchun \$3998,7 darajasida savdolashmoqda. O'sishga AQSh mehnat bozori bo'yicha sust ma'lumotlar turtki berdi: oktyabr oyida kompaniyalar 153 ming nafar xodimni qisqartirgan, bu esa 2008-yildan buyon eng yuqori ko'rsatkichdir.

Bu holat Federal zaxira tizimi (FRT) tomonidan dekabr oyida foiz stavkasini pasaytirish ehtimolini (taxminan 67%) kuchaytirdi.

Analitiklarning fikricha, oltin yil oxirigacha yuqori narxda qoladi, biroq AQSh va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar keskinlashmasa, rekord darajani yangilashi dargumon. Shuningdek, AQShdagi hukumat ishlari to'xtashi (shutdown) xavfi ham xavfsiz aktivlarga bo'lgan talabni oshirmoqda.

➤ Brent neft narxi bir barrel uchun \$64 dan pastga tushdi

Neft narxlari so'nggi uch sessiyadagi pasayishni qoplashga urinib, biroz o'smoqda. Bozor Rossiyaga qarshi yangi sanksiyalarni kuzatmoqda, ular Rossiya neftining eksport hajmini qisqartirishi mumkin.

Gunvor kompaniyasi AQSh Moliya vazirligi Ukrainadagi mojaroga yakun yetsa ginagina bitimga ruxsat berilishini bildirganidan so'ng, LUKOYLning xorijdagi aktivlarini sotib olish rejasidan voz kechdi.

Mutaxassislar fikricha, AQShning Rossiyaga nisbatan bosimi kuchaymoqda, biroq sanksiyalar tufayli yuzaga kelgan noaniqlikka qaramay, bozorda taklif ortiqligi sababli neft narxlari asta-sekin pasayishda davom etishi kutilmoqda.

➤ Gaz narxlarining pasayishi

Yevropa gaz bozorida narxlarning pasayishi kuzatilmoqda. TTF birjasida kotirovkalar 1 megavatt-soat uchun \$35,9 gacha tushdi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, buning asosiy sababi — iliq va shamolli ob-havo, bu esa energetika hamda kommunal sohada gaz iste'molini kamaytirgan.

Gaz yetkazib berishdagi uzilishlar xavfi hanuz saqlanib turgan bo'lsa-da, talab pastligicha qolmoqda.

Shunday qilib, gaz narxlarining pasayishi mo'tadil talab va qulay ob-havo sharoitlarini aks ettiradi, bu esa Yevropa energetika bozorining barqarorlashishiga yordam bermoqda.

Yangiliklar

Krom Bank (Indoneziya) Mambu bilan hamkorligini 5 yilga uzaytirdi

Krom Bank — Kredivo guruhining raqamli banki — 2024-yildagi muvaffaqiyatli ishga tushirilishdan so'ng bulutli bank infratuzilmasi platformasi Mambu bilan hamkorligini uzaytirdi. Maqsad — 2030-yilgacha raqamli bank xizmatlarini kengaytirib, taxminan 20 million hisobga yetkazish.

Ozarbayjon Markaziy banki banklar ishtirokida raqamli innovatsiyalarni ilgari surmoqda

31-oktabr kuni regulyator fintex ekotizimini rivojlantirishga bag'ishlangan davra suhbatini o'tkazdi, unda to'lov infratuzilmasini kengaytirish va fintexlar hamda banklar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Malayziya: steyblkoinlarga asoslangan birinchi islomiy raqamli bank

Malayziyada shariat talablariga mos modelda faoliyat yurituvchi va infratuzilmasining bir qismi sifatida steyblkoinlardan foydalanadigan birinchi raqamli bank litsenziya oldi.

Sberbank Rossiyadagi eng innovatsion bank deb topildi

2024-yil yakunlariga ko'ra, bank "Skolkovo" jamg'armasi tomonidan tuzilgan innovatsionlik reytingida birinchi o'rinni egalladi. Bu esa Rossiyadagi yirik banklar raqamli transformatsiyani jadallashtirayotgani, startup ekotizimlarini yaratayotgani va texnologik salohiyatini mustahkamlab borayotganini tasdiqlaydi — bu esa fintex sohasidagi raqobatbardoshlik uchun muhim omil hisoblanadi.

